

Date: 29th January-2026

HUQUQNI QO'LLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Ergasheva Asila Alijonovna

Namangan davlat universiteti yuridik fakul'teti magistri

Annotatsiya: Maqolada huquqni qo'llash tushunchasining nazariy jihatlari, huquqni qo'llash jarayonida chiqariladigan hujjatlarga qo'yilgan talablar, huquqni qo'llashdagi ayrim muammolar va uning yechimlari haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Norma, xayot, tatbiq etish, shaxs, subyektiv huquq, amalga oshirish, jamiyat, a'zo, huquq, bajarish, rioya etish, amal qilish, tadbiq etish, yuridik fakt, vakolat, subyekt, talab, nigilizm, huquqiy ong

Аннотация: В статье представлены теоретические аспекты концепции правоприменения, требования к документам, выдаваемым в процессе правоприменения, некоторые проблемы в правоприменении и их решения.

Ключевые слова: Норма, жизнь, правоприменение, личность, субъективное право, реализация, общество, член, право, исполнение, соблюдение, практика, реализация, правовой факт, власть, субъект, требование, нигилизм, правовое сознание

Abstract: The article presents theoretical aspects of the concept of law enforcement, requirements for documents issued in the process of law enforcement, some problems in law enforcement and their solutions.

Keywords: Norm, life, enforcement, person, subjective right, implementation, society, member, right, execution, compliance, practice, implementation, legal fact, authority, subject, requirement, nihilism, legal consciousness

Ijtimoiy xayotni tartibga solish, ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirish uchun huquq normalarini yaratish davlat oliy organlari Oliy Majlis, Vazirlar Maxkamasining vakolatidir.

Yaratilgan normalarini xayotga tatbiq etishda esa shaxslarning subyektiv huquqini amalga oshirish kuzatiladi.

Jamiyat a'zolari tomonidan subyektiv huquqni amalga oshirish

-normalarni bajarilishi;

-normalarga rioya etish;

-normalarga amal qilish;

-normalarni tadbiq etish tarzida olib boriladi.

Normalarni tatbiq etish jiddiy tushuncha bo'lib, normani tegishli yuridik faktga tadbiq etishdagi subyektlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

-Avvalo huquqni qo'llovchi sub'yekt vakolatli bo'lishi;

-tegishli normani voqelik yoki xodisaga mosligini malaka qila olishi;

-huquqni qo'llash jarayonida muayyan protsessual hujjatni tayyorlashi;

- huquqni qo'llash jarayonida tayyorlangan aktning oqibatini taxlil eta olishi.



Date: 29th January-2026

Ushbu qoidalar davlat huquqining nazariy masalalari bo'lib, huquqni tadbiiq etuvchida yetarli huquqiy ong va yetarli tajriba saviyasi ham talab etiladi.

Mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha soxalarida olib borilayotgan islohotlarda huquqni amalga oshirish, xususan huquqni qo'llash jarayonini takomillashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, huquqni qo'llash – huquq normalari talabini amalga oshirishning asosiy shakllaridan biridir. Huquqni qo'llash faoliyati huquq normasini to'la-to'kis tatbiq etish uchun vakolatli organ yoki mansabdor shaxsning aralashuvi talab etilgan hollarda zaruriyatga aylanadi. Huquqni qo'llash faoliyati hokimiy xarakterga hamda unda qaror tegishli organing irodasi mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Yuridik adabiyotlarida huquqni amalga oshirish xususida turlicha qarashlar o'z ifodasini topgan. Masalan, huquqiy davlat nazariyasini falsafiy jihatdan asoslab bergan olimlardan biri I.Kant huquqni amalga oshirish yuzasidan quyidagicha fikrlarni ilgari surgan: “Huquqning amalga oshirilishi uning umummajburiy bo'lishini talab etadi. Huquq majburiy kuch ishlatmasdan o'z funksiyasini amalga oshirishga qodir emas va qat'iy imperativ umumiy qonun sifatida o'z muqarrarligidan mahrum bo'ladi. Huquqni majburiy kuch bilan faqat majburiyatning asl va birlamchi egasi- davlat ta'minlay oladi. Shunisi ham borki, davlatchilik huquqqa hayot bag'ishlaydi va qat'iy imperativ talablarini oqlaydi”.

Huquqni qo'llash jarayonida asoslar mavjudligi muayyan huquqni qo'llovchi huquqiy hujjatlarni chiqarishni talab etadi. Huquqni qo'llash akti tegishli shakl va mazmunga ega bolishi talab etiladi.

Xususan, huquqshunos olim Z.M. Islomovning ta'riflashicha, “Huquqni qo'llash akti – bu davlat-hokimiy xususiyatiga ega, individual belgilangan hujjat bo'lib, u vakolatli subyekt tomonidan subyektiv huquqlar yoki yuridik majburiyatlar mavjudligi yoki yo'qligini aniqlash hamda tegishli huquqiy normalar asosida va ularning normativ amalga oshirilish manfaatini ko'zlab, ular mezonini belgilash maqsadida muayyan ish yuzasidan tuziladi”[2]-, degan ta'rifni bergan.

Huquqni qo'llash jarayonida ayrim ijtimoiy munosabatlarga mos keluvchi normalar topilmasligi, ayrim normalarning umuman ishlatilmasligi xolatlarini kuzatishimiz mumkin, xususan so'nggi yillarda atrof muxitimizdagi ekologik muammolar, tabiatga zarar yetkazish bilan bo'g'liq muammoli vaziyatlarni kuzatilyapti. Masalan, xavoning ifloslanish darajasi yuqiriligi insonlar salomatligiga salbiy ta'sir etmoqda. Yo'qotilgan salomatlik xolatlari bo'yicha ststistik ma'lumotlar salmoqli darajada. Lekin insonlarning sog'lig'iga iflos xavo ta'siri bo'yicha kim javobgar, degan masala kelib chiqmoqda. Bu borada ko'rib chiqilganda normative bo'shliqni kuzatish mumkin.

Davlatimiz rahbari tomonidan bu borada jiddiy munosabatlar bildirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3666-son Qaroriga muvofiq, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini



Date: 29th January-2026

izchil va bir xilda ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan.

Mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha soalarida olib borilayotgan islohotlarda huquqni amalga oshirish, xususan huquqni qo'llash jarayonini takomillashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda.

XULOSA

Huquqni qo'llash hujjatini har qanday subyekt emas, balki qonun bilan belgilab qo'yilgan va muayyan vakolatga ega bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslargina amalga oshira oladilar. Bunda huquqni qo'llash hujjatlari muayyan huquq subyektiga yo'naltirilgan bo'ladi. Shunga ko'ra berilgan ma'lumotlarga asosan huquqni qo'llash hujjatlarining quyidagi asosiy vazifalari mavjud ekan:

-Huquqni qo'llash uchun aniq voqelik va xodisa, ya'ni yuridik fakt bo'lishu talab etiladi;

-Huquqni qo'llash normasi vaqt va zamonda amal qilayotgan bo'lishu talab etiladi;

-Huquqni qo'llash akti qabul qilish shart;

-Huquqni qo'llash aktida oqibat belgilangan bo'lishi kerak, ya'ni, subyektining javobgarlik doirasini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.“O'zbekiston Respublikasida Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 18.03.2022. PQ-3666-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 yil 28 apreldagi SQ 526-IV-son “Qonunlarning ijrosi holati, huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish va qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan amalga oshirilgan monitoring natijalari to'g'risida” gi qarori.
3. Islomov. Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat. 2007. – 916 b.
- 4.Davlat va huquq nazariyasi. Saydullayev Sh. 2024. <https://library-tsul.uz>.

